# Uzbekistan Airways Toshkentdan Omsk va Nijniy Novgorodga parvozlarni amalga oshiradi va “Sharqiy” xabni rivojlantiradi.

**2023 2 Fevral**

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi 2023-yil bahor-yoz navigatsiyasidan boshlab Toshkentdan Rossiya Federatsiyasining ikkita shahriga yangi yo‘nalish bo‘yicha aviaqatnovlar sonini oshirmoqda. Aviakompaniya Toshkent-Omsk-Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha 26-martdan haftasiga bir marta, yakshanba kunlari, shuningdek, Toshkent-Nijniy Novgorod-Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha 28-martdan haftasiga ikki marta, seshanba va shanba kunlari muntazam parvozlarni amalga oshira boshlaydi.

Aviakompaniyaning “Sharqiy” xabni rivojlantirish loyihasi doirasida aviaqatnovlar soni Namangandan ham ko‘paytirilmoqda.  Shu yilning 27-martidan boshlab Namangan-Orenburg-Namangan yo‘nalishi bo‘yicha ham parvozlar tiklanadi. Muntazam to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnovlar haftada bir marta dushanba kunlari amalga oshiriladi. 31-martdan boshlab esa Uzbekistan Airways haftada bir marta, juma kunlari Namangan-Nijnevartovsk-Namangan yo‘nalishi bo‘yicha yangi yo‘nalishni yo‘lga qo‘yadi.

Toshkentdan, Namangandan parvoz qiluvchi yuqorida sanab o‘tilgan barcha aviaqatnovlar aviakompaniyaning kam byudjetli yo‘lovchi aviatashuvchisi hisoblangan – Uzbekistan Airways Express brendi ostida amalga oshirilib aviatsiya bozorida yo‘lovchilar uchun hamyonbop narxdagi aviachiptalarni taqdim etadi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy saytidan 3% chegirma bilan, “UzAirways” mobil ilovasi orqali, Uzbekistan Airways Sales filialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilib olish mumkin.